

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASHINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti,
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(Boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi magistranti

ORCID: 0009-0001-0545-4576

E-mail: dilnavozkarimova64@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21189687>

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanishning metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba, suhbat va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tajriba Andijon shahridagi "Innovation Erudit School" xususiy umumiy o'rta ta'lim maktabining 4-sinfida tahsil olayotgan 25 nafar o'quvchi ishtirokida o'tkazildi. Tadqiqot natijalari interfaol metodlar o'quvchilarning matnni tahlil qilish, dalillar asosida fikr bildirish, muammoli vaziyatlarga yechim topish hamda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini samarali rivojlantirishini ko'rsatdi. Shuningdek, interfaol metodlardan muntazam foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirishi, hamkorlikda ishlash madaniyatini shakllantirishi hamda ta'lim samaradorligini yuksaltirishi aniqlandi. Tadqiqot yakunida boshlang'ich sinf ona tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, interfaol metodlar, boshlang'ich ta'lim, ona tili darslari, pedagogik texnologiyalar, matn tahlili, o'qish savodxonligi, mustaqil fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim samaradorligi.

Аннотация: В данной статье раскрываются методические основы использования интерактивных методов для развития критического мышления учащихся на уроках родного языка в начальной школе. В ходе исследования использованы методы педагогического наблюдения, педагогического эксперимента, беседы и сравнительного анализа. Эксперимент проведён с участием 25 учащегося 4 класса частной общеобразовательной школы «Innovation Erudit School» города Андижана. Результаты исследования показали, что интерактивные методы способствуют развитию навыков анализа текста, аргументированного выражения собственного мнения, поиска решений проблемных ситуаций и самостоятельного формулирования выводов. Кроме того, систематическое применение интерактивных методов повышает активность учащихся на уроках, формирует навыки сотрудничества и способствует повышению эффективности обучения. По итогам исследования разработаны методические рекомендации по развитию критического мышления на уроках родного языка в начальной школе.

Ключевые слова: критическое мышление, интерактивные методы, начальное образование, уроки родного языка, педагогические технологии, анализ текста, читательская грамотность, самостоятельное мышление, компетентностный подход, эффективность обучения.

Abstract: This article examines the methodological foundations of using interactive teaching methods to develop critical thinking among primary school pupils in Mother Tongue lessons. The research employed pedagogical observation, classroom experiment, interviews, and comparative analysis. The study was conducted with 25 four-grade pupils at Innovation Erudit

School in Andijan. The findings revealed that interactive teaching methods effectively improve pupils' ability to analyze texts, express evidence-based opinions, solve problem situations, and draw independent conclusions. Furthermore, the systematic use of interactive methods increased classroom participation, promoted collaborative learning, and enhanced overall educational effectiveness. Based on the research findings, methodological recommendations for developing critical thinking in primary school Mother Tongue lessons were proposed.

Keywords: critical thinking, interactive teaching methods, primary education, Mother Tongue lessons, educational technologies, text analysis, reading literacy, independent thinking, competency-based approach, educational effectiveness.

Kirish.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni tahlil qilishi hamda asoslangan xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Zamonaviy jamiyat sharoitida o'quvchidan nafaqat tayyor bilimlarni egallash, balki ularni tahlil qilish, baholash va turli hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ham talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'lim bosqichidayoq tanqidiy fikrlashni shakllantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. "Boshlang'ich ta'limda o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir"[7]. Mazkur fikr shuni anglatadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchining tayyor javoblarni yod olishi emas, balki voqea-hodisalarni tahlil qilishi, sabab va oqibatlarni aniqlashi hamda o'z nuqtai nazarini asoslay olishini rivojlantirishi lozim. Ayniqsa, ona tili darslari o'quvchilarning matn ustida ishlashi, fikr almashishi va mantiqiy xulosalar chiqarishi uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.

Tanqidiy fikrlash shaxsning axborotni tahlil qilish, dalillarni taqqoslash, turli qarashlarni baholash hamda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu ko'nikma boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi, nutqiy kompetensiyasi va kommunikativ faolligi bilan uzviy bog'liq. Shu sababli ona tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va vositalarni tanlash alohida ahamiyat kasb etadi. "Interfaol metodlar o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ularni erkin fikrlashga va hamkorlikda ishlashga undaydi"[3]. Ushbu yondashuv interfaol metodlarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlarini namoyon etadi. Dars jarayonida "Aqliy hujum", "Klaster", "INSERT", "BBB", "Venn diagrammasi", "FSMU", "Sinkveyn" kabi metodlardan foydalanish o'quvchilarni muammoni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqishga, fikrlarini asoslashga va tengdoshlari bilan muloqot qilishga o'rgatadi.

Xalqaro tadqiqotlarda ham tanqidiy fikrlash XXI asrning eng muhim tayanch ko'nikmalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. UNESCO hamda OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, muammolarni hal etish va muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan. Mazkur yondashuv boshlang'ich ta'limda interfaol metodlardan foydalanish zaruratini yanada kuchaytiradi. Mahalliy olimlar tomonidan ona tili darslarida nutqni rivojlantirish, matn bilan ishlash va kompetensiyaviy yondashuv masalalari keng o'rganilgan bo'lsa-da, interfaol metodlarning aynan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi metodik imkoniyatlari hali yetarli darajada yoritilmagan. Aksariyat tadqiqotlar interfaol metodlarning umumiy afzalliklariga bag'ishlangan bo'lib, ularning boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlashiga ta'siri bo'yicha amaliy natijalar cheklangan. "O'quvchilarning fikrlash faoliyati faqat bilimlarni o'zlashtirish bilan emas, balki ularni tahlil qilish, taqqoslash va baholash jarayonida rivojlanadi"[9]. Ushbu ilmiy qarash mazkur tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi. Shuning uchun maqolada interfaol metodlardan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik samaradorligi amaliy tajriba asosida tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning metodik asoslarini ishlab chiqish, ularning pedagogik samaradorligini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, boshlang'ich sinf ona tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan interfaol metodlar tizimi ishlab chiqildi, ularning pedagogik samaradorligi amaliy tajriba asosida baholandi hamda o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar taklif etildi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot boshlang'ich sinf ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish samaradorligini aniqlash maqsadida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba, suhbat, savol-javob, muammoli vaziyatlar yaratish, amaliy topshiriqlar hamda natijalarni qiyosiy tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlarning o'zaro uyg'unligi o'quvchilarning fikrlash faoliyatidagi o'zgarishlarni kompleks baholash imkonini berdi. Tadqiqot Andijon shahridagi "Innovation Erudit School" xususiy umumiy o'rta ta'lim maktabining 4-sinfida tahsil olayotgan 25 nafar o'quvchi ishtirokida amalga oshirildi. Tajriba mashg'ulotlari besh hafta davomida ona tili fanining mavzulari asosida tashkil etildi. Dars jarayonida o'quvchilarning matnni tahlil qilish, dalillar asosida fikr bildirish, muammoli vaziyatlarga yechim taklif etish hamda xulosalar chiqarish ko'nikmalaridagi o'zgarishlar muntazam kuzatib borildi. "Pedagogik tajriba o'quv jarayoniga joriy etilgan metodlarning samaradorligini amaliy sharoitda tekshirishning eng muhim usullaridan biridir"[8]. Mazkur yondashuv tadqiqot davomida interfaol metodlarning o'quvchilarning tanqidiy fikrlashiga ta'sirini tabiiy ta'lim muhitida aniqlash imkonini berdi. Shu sababli tajriba darslari o'quvchilarning kundalik ta'lim faoliyatidan ajratilmagan holda tashkil etildi.

Tajriba davomida "Aqliy hujum", "Klaster", "INSERT", "Venn diagrammasi", "FSMU", "Sinkveyn" hamda "Muammoli vaziyat" metodlaridan foydalanildi. Har bir metod dars mavzusiga mos ravishda tanlanib, o'quvchilarni matn mazmunini chuqur tahlil qilish, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, voqealar sabablarini aniqlash hamda o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashga yo'naltirdi. "Interfaol metodlarning samaradorligi o'quvchilarning erkin fikrlashi va muloqot jarayonidagi faolligi bilan belgilanadi"[3]. Ushbu ilmiy qarash tajriba mashg'ulotlari davomida ham o'z tasdig'ini topdi. O'quvchilar kichik guruhlarda ishlash jarayonida bir-birining fikrini tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash hamda umumiy xulosaga kelish ko'nikmalarini namoyon etdilar.

Tadqiqot davomida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- matn mazmunini tahlil qila olish;
- sabab va oqibatlarni aniqlash;
- dalillar asosida fikr bildirish;
- muammoli vaziyatlarga yechim taklif etish;
- o'z fikrini asoslab himoya qilish;
- guruhli muhokamalarda faol ishtirok etish.

Mazkur mezonlar asosida har bir o'quvchining faoliyati kuzatildi va maxsus kuzatuv varaqalari orqali qayd etildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, interfaol metodlarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligi baholandi. "Ta'lim jarayonida baholash o'quvchining faqat bilim darajasini emas, balki fikrlash faoliyatidagi rivojlanishni ham aks ettirishi lozim"[9]. Shu bois tadqiqotda o'quvchilarning javoblari faqat to'g'ri yoki noto'g'ri mezonni asosida emas, balki ularning dalillash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalari nuqtai nazaridan ham baholandi. Natijada qo'llanilgan metodlar interfaol yondashuvning boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun zarur ilmiy asosni yaratdi.

Muhokama.

Mazkur tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Tajriba mashg'ulotlari davomida o'quvchilarning matnni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni baholash, dalillar asosida xulosa chiqarish hamda o'z fikrini asoslab himoya qilish ko'nikmalarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Ayniqsa, kichik guruhlarda tashkil etilgan muhokamalar va interfaol topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash faolligini oshirishga xizmat qildi. "Tanqidiy fikrlash o'quvchining axborotni tahlil qilishi, taqqoslashi, baholashi va mustaqil xulosa chiqarishiga asoslangan murakkab intellektual faoliyatdir"[9]. Ushbu ilmiy qarash tadqiqot natijalari bilan to'liq uyg'unlashadi. Chunki tajriba davomida o'quvchilar tayyor javoblarni takrorlashdan ko'ra, matndagi voqealarga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash hamda muammolarga turli yechimlarni taklif etishga intildilar. Olingan natijalar R. Ishmuhamedov, O'. Tolipov va M. Usmonboyevalarning interfaol ta'lim metodlari o'quvchilarni faol fikrlashga undashi haqidagi ilmiy qarashlarini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Shuningdek, xalqaro pedagogik tadqiqotlarda ilgari surilgan o'quvchi markazli ta'lim tamoyillari bilan ham mos keladi. Bu esa interfaol metodlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda universal pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida ayniqsa "FSMU", "INSERT" va "Venn diagrammasi" metodlari samaraliroq natija bergani kuzatildi. Mazkur metodlar o'quvchilarga matndagi axborotni tahlil qilish, o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash, dalillarni tizimlashtirish hamda asosli xulosa chiqarish imkonini yaratdi. Buning natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va nutqiy faolligi sezilarli darajada rivojlandi. "Interfaol metodlar o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish va muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi"[3]. Tadqiqot davomida ushbu fikrning amaliy tasdig'i kuzatildi. O'quvchilar guruhli muhokamalarda faol qatnashib, tengdoshlari fikrini tinglash, o'z fikrini dalillar bilan asoslash hamda umumiy xulosaga kelish ko'nikmalarini namoyon etdilar. Shu bilan birga, tajriba jarayonida ayrim o'quvchilarda darsning dastlabki bosqichlarida o'z fikrini ochiq bayon etishda ikkilanish holatlari kuzatildi. Biroq interfaol metodlardan muntazam foydalanish natijasida bunday holatlar kamayib, o'quvchilarning darsdagi ishtiroki va fikrlash faolligi bosqichma-bosqich oshdi. Bu esa tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uzluksiz va tizimli pedagogik faoliyatni talab qilishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari interfaol metodlardan boshlang'ich sinf ona tili darslarida maqsadli va metodik jihatdan to'g'ri foydalanish o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, ularning o'qish savodxonligini oshirish hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim pedagogik omil ekanligini tasdiqladi. Mazkur yondashuvni boshlang'ich ta'lim amaliyotida keng qo'llash ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Natijalar.

Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanishning o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ta'siri pedagogik tajriba asosida baholandi. Tajriba mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarning matnni tahlil qilish, sabab va oqibatlarni aniqlash, dalillar asosida fikr bildirish, muammoli vaziyatlarga yechim taklif etish hamda xulosa chiqarish ko'nikmalaridagi o'zgarishlar muntazam kuzatib borildi. "Ta'lim jarayonida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini baholash ularning bilimni qay darajada tahlil qila olishi va amaliy vaziyatlarda qo'llay olishini aniqlash imkonini beradi"[9]. Mazkur yondashuv tadqiqot davomida asosiy baholash mezonini sifatida qabul qilindi. Shu bois o'quvchilarning javoblari faqat to'g'ri yoki noto'g'ri mezonini asosida emas, balki ularning fikrini asoslay olishi, dalillar keltirishi va xulosalar chiqarish qobiliyati nuqtai nazaridan ham baholandi.

Pedagogik tajriba davomida interfaol metodlar asosida tashkil etilgan dars mashg'ulotlari natijasida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'rsatkichlarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Ayniqsa, matn mazmunini tahlil qilish va muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim taklif etish ko'nikmalari ancha rivojlandi.

1-jadval

Interfaol metodlardan foydalanish natijasida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar (n = 21)

Baholash mezonlari	Tajriba boshida (%)	Tajriba yakunida (%)	O'sish (%)
Matnni tahlil qilish	59	87	+28
Sabab va oqibatni aniqlash	56	84	+28
Dalillar asosida fikr bildirish	48	82	+34
Muammoga yechim taklif etish	45	80	+35
Mustaqil xulosa chiqarish	52	86	+34

Manba: Muallif tomonidan o'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tajriba yakunida barcha baholash mezonlari bo'yicha ijobiy o'sish qayd etildi. Eng yuqori o'sish muammoli vaziyatlarga yechim taklif etish hamda dalillar asosida fikr bildirish ko'nikmalarida kuzatildi. Bu esa interfaol metodlarning o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. "Interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtirib, ularni tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarishga undaydi"[3]. Tadqiqot davomida ushbu ilmiy qarash amaliy jihatdan ham o'z tasdig'ini topdi. O'quvchilar matn ustida ishlash jarayonida qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, voqealarning sabablarini izohlash hamda turli vaziyatlar yuzasidan o'z nuqtai nazarlarini asoslab bayon etishga harakat qildilar. Pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning faolligi, muloqotga kirishish darajasi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari ham sezilarli darajada rivojlandi. Bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirish faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmasdan, o'quvchilarni faol ta'lim jarayoniga jalb etish orqali samarali shakllanishini ko'rsatadi.

Xulosa.

Mazkur tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda samarali pedagogik yondashuv ekanligini ko'rsatdi. Pedagogik tajriba davomida qo'llanilgan interfaol metodlar o'quvchilarning matnni tahlil qilish, dalillarni taqqoslash, muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim topish hamda o'z fikrini asoslab bayon etish ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. "Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi"[9]. Mazkur ilmiy qarash tadqiqot natijalari bilan ham o'z tasdig'ini topdi. Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar davomida o'quvchilar dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi, muammolarni tahlil qilish, o'z fikrini dalillar bilan asoslash hamda guruhli muhokamalarda faol qatnashish ko'nikmalarini namoyon etdilar.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

- boshlang'ich sinf ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi;
- "Aqliy hujum", "INSERT", "Klaster", "Venn diagrammasi", "FSMU" va "Sinkveyn" metodlari o'quvchilarning matnni tahlil qilish, dalillar asosida fikr bildirish hamda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni namoyon etdi;

- interfaol metodlardan muntazam foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirib, ularning muloqot madaniyati va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi;
- tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar o'quvchilarning o'qish savodxonligi va nutqiy kompetensiyasini ham takomillashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi;
- interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni tahlil qilish va o'z nuqtai nazarini asoslash kompetensiyalarini shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratdi.

Tadqiqot asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ona tili darslarida interfaol metodlardan tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda foydalanish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi matnlar hamda muammoli vaziyatlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, dars jarayonida o'quvchilarning fikrini asoslash, dalillar keltirish va muqobil yechimlarni taklif etishga undovchi topshiriqlar ulushini ko'paytirish ta'lim samaradorligini yanada oshiradi. Kelgusida mazkur yo'nalishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning raqamli ta'lim vositalari, sun'iy intellekt texnologiyalari va xalqaro baholash dasturlari (PIRLS, PISA) bilan integratsiyalashgan metodikalarini ishlab chiqish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Halpern D. F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. 6th ed. – New York: Routledge, 2024.
2. IEA. PIRLS 2021 Assessment Framework. – Amsterdam: International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), 2021.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2018.
4. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Milliy o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2021.
7. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2022.
8. Sodiqov A. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020.
9. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
10. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.